Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz

OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 3 (2024) · “Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirish tendensiyalari” mavzusidagi respublika il...

SANOAT KORHONALARIDA ISHLAB CHIQARILGAN MAHSULOTLARNI EKSPORT IMPORT STRATEGIYASI

Xabibullayev Abdulaziz
Andijon mashinasozlik instituti,
iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi.

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Respublikamizdagi yengil sanoat korxonalarinining holati, ya’ni ishlab chiqarish samaradorligi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning eksport import holati o‘rganib chiqilgan. Bundan tashqari Respublikamiz qonunchiligida import va eksport strategiyasining amaliy ishlab chiqarish jarayonida qo’llanishi xususan yengil sanoat korxonalari faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ko‘plab islohotlarning olib borilayotganligi va ko‘rilayotgan chora-tadbirlar keltirilgan.*

Kalit so‘zlar: *ishlab chiqarsih, korxona, iqtisod, samaradorlik, tayyor mahsulot, xom ashyo, raqobat, diversifikatsiya, eksport, investisiya, texnologiya.*

Bugungi kunda yengil sanoatning jadal va barqaror rivojlanishini ta’minlash, mahalliy xom ashyoni chuqur qayta ishlash orqali birinchi navbatda tashqi bozorlardaraqobatbardosh bo‘lgan yuqori qo‘shilgan qiymatga ega to‘qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal va mo‘ynachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va kengaytirish, shuningdek, salohiyatli xorijiy investorlar jalb qilinishi rejalashtirilmoqda. 2019 yilning 11 oyida respublikaning tashqi savdo aylanmasi hajmi 38,3 mlrd.dollarni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 33,4 foizga yoki 9,6 mlrd. dollarga oshgan (2018y. – 28,7 mlrd, doll.). Jumladan: eksportning umumiy hajmi 16,3 mlrd. Dollarni tashkil etib, 43,3 foizga yoki 4,9 mlrd, dollarga oshgan (2018 y. – 11,3 mlrd, doll.). Import hajmi 22,0 mlrd. dollarni tashkil etib, 27,0 foizga yoki 4,7 mlrd, dollarga oshgan (2018 y–17,3 mlrd. doll.). Natijada, tashqi savdo aylanmasi manfiy saldosi -5,7 mlrd.dollarni tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 228,4 mln.dollarga yoki 3,8 foizga kamaygan (2018y.– 6,0 mlrd.doll.). Eksportni rag‘batlantirish, xususan mahalliy mahsulotlarni tashqi bozorga olib chiqishni har tomonlama soddalashtirish hamda moliyaviy qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar natijasida 2019 yil yakuni bilan umumiy eksport hajmi 34 %ga o‘sib, 18,7 mlrd dollarga yetishi kutilmoqda. Bunda asosan, jahon tovar-xomashyo bozorlarida asosiy eksport tovarlari uchun yuqori narxlar shakllanishi tovarlar eksporti hajmini 1 mlrd. dollargacha yoki 7 foiz o‘sishiga, xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlantirilishi hisobiga esa 1,5 mlrd.dollarga yoki 11 foiz o‘sishiga xizmat qildi. Natijada, o‘tgan davrda tovar va xizmatlar eksport qiluvchi korxonalar soni 1138 taga ko‘payib, hamkor mamlakatlarning eksport geografiyasi 18 ta davlatga kengayib, 177 taga yetdi. Xususan, oziq-ovqat mahsulotlari eksporti o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 392,3 mln.dollarga yoki 38 foizga, rangli metal va undan tayyorlangan buyumlar - 146,4 mln.dollarga yoki 20 foizga, to‘qimachilik mahsulotlari - 289,7 mln.dollarga yoki 24,6 foizga, xizmatlar -

Published: 17.05.2024

Cite this article: Xabibullayev Abdulaziz (2024). Sanoat korhonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarni eksport import strategiyasi. Emro Science and Education, 1(3). https://journal.emro.uz/public/maqola/148

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

344,8 mln.dollarga yoki 12,5 foizga va boshqalar - 252,3 mln.dollarga yoki qariyb 2 barobargacha o‘sdi.

2019 yilning 11 oyida import qilingan tovarlar hajmi o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 4,5 mlrd.dollariga oshib, 19,8 mlrd.dollarni, xizmatlar importi hajmi 2,2 mlrd.dollarni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar hamda ularning qismlari 44,1 foizni, kimyo mahsulotlari va undan tayyorlangan buyumlar 13 foizni, oziq-ovqat mahsulotlari 7,6 foizni tashkil etdi. Ushbu import tovarlarning qariyib 50 foizi iqtisodiyotda investitsion importni, 25 foizi qayta ishlash uchun xom-ashyo importini, 25 foizi tayyor mahsulot sifatida iste’mol importini tashkil etdi.2 Tovarlar importi o‘sishiga ta’sir etgan omillar va manfiy saldosining yuqoriligi sabablari. Mamlakatimizda 2017-2021 yillarda keng ko‘lamda olib borilayotgan iqtisodiyot tarmoqlarini jadal rivojlantirish, yangi investitsion loyihalarni, aholi farovonligini va eksport salohiyatini oshirish bilan bog‘liq islohotlarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan va mamlakatimizda ishlab chiqarilmaydigan tovar resurslarini import hisobiga ta’minlanishi. Aholi daromadlarining o‘sishi natijasida mahsulotlarga bo‘lgan talabning oshishi va uni chetdan keltirilgan tovarlar hisobiga qondirilishi. Shu o’rinda mavzu doirasida iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha quyidagi tavsiyalarni berishni maqul ko’rdik: Mamlakatimizda iqtisodiy muhitni sog‘lomlashtirish (inflyatsiya darajasini pasaytirish, ayirboshlash kursining mo‘tadilligini ta’minlash), tadbirkorlikni rag‘batlantirish maqsadida: Mamlakatda aksiya (kapital) bozorini kengaytirish orqali portfel investitsiyalar hajmini ko‘paytirish. Xususiy korxonalar va aholi bo‘sh mablag‘larini birinchi navbatda davlat va davlat ulushi bo‘lgan korxonalar aksiyalarini sotib olishga hamda kichik va o‘rta biznesni rivojlantirishga yo‘naltirish choralarini ko‘rish; Respublikamizda eksport hajmida tayyor mahsulotlar ulushini oshirishga jiddiy e’tibor berilmoqda. Bu borada yengil sanoatda ham e’tiborga loyiq ishlar olib borilmoqda. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2015 yilda respublikamizda ishlab chiqarilgan paxta tolasining 336 ming tonnasi, 2016 yilda 400 ming tonnasi, 2017 yilda 468 ming tonnasi qayta ishlangan bo‘lsa, 2018 yilda esa 706 ming tonna atrofida qayta ishlangan va 2019 yilda esa 714 ming tonna paxta tolasini qayta ishlangan bo‘lib, keyingi yillarda ishlab chiqarilgan paxta tolasini 100% qayta ishlashga harakat qilinmoqda va bunga erishildi ham.

Xulosa qilib aytganda Respublikamizda sanoat korxonalarida ishlab chiqarish jarayoni va importni kamaytirish, aksincha eksport ulishini oshirish bo’yicha zaruriy huquqiy baza va qulay sharoitlar shakllantirilgan va ishlab chiqarish hajmini oshirish imkonini beruvchi qo‘shimcha mablag‘lar jalb etish, ishlab chiqarish jarayonini diversifikatsiya qilishga katta e’tibor qaratilgan. Misol uchun yengil sanoat sohasini oladigan bo’lsak ushbu korxonalarda sifatni boshqarish mexanizmini takomillashtirish, xususan, tarmoq korxonalarida «Sifatni boshqarish va monitoring qilish» bo‘yicha Ishchi guruhning tarkibi va vazifalarini takomillashtirish borasida ishlar olib borilmoqda. Bugungi kunda yengil sanoat tarmoqlari jadal rivojlanib bormoqda. Bu tarmoqlarda xususiy sektorning tashabbuslari va yangi loyihalarini qo‘llabquvvatlashbo‘yicha barcha choralar ko‘rilmoqda.

Qoplanish davri investitsiyalar samaradorligini baholashning eng ko‘p tarqalgan ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Bizning amaliyotimizda qo‘llaniladigan kapital qo‘yilmalarning qoplanish muddati ko‘rsatkichi ham foydaga emas, balki investitsiyalanadigan mablag‘larga, keltirilgan pul oqimlariga va haqiqiy qiymatga nisbatan pul oqimi summasiga asoslanadi. Qisqa muddatli qo‘yilmalarda ushbu davr 1 oy, uzoq muddatli qo‘yilmalarda esa 1 yil qilib belgilanadi. Qoplash davri ko‘rsatkichi nafaqat investitsiyalar samaradorligini baholash uchun, balki likvidlik bilan (loyihaning amalga oshirilish davri uni to‘liq qoplanishigacha qanchalik mos bo‘lsa, investitsiyalash bilan bog‘liq bo‘lgan xatarlar darajasi shunchalik yuqori bo‘ladi) bog‘liq investitsiyalash xatarlari darajalarini baholash uchun kam ishlatilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 16.09.2019 йилдаги “Енгил саноатни янада ривожлантириш ва тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ги ПҚ-4453-сонли Қарори

2. Бабурин Е.А. Теоретические аспекты анализа ресурсного потенциала предприятия // Проблемы современной экономики. 2011. №5. стр. 152-156.;

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 16 sentyabrdagi “Yengil sanoatni yanada rivojlantirish va tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ-4453 sonli Qarori.

4. Grigoryev A. Marketing: yoki zarur qadamlar. // Korxonani boshqarish. T.: 2009.№3. -21-22-betlar

5. “Shog`iyosov T. Komrleks iqtisodiy tahlil. Darslik. T.: Fan va texnologiya, 2020. – 280b.

- Ziyonet.uz,
- cyberleninka.ru,
- yandex.ru,
- uznatib.uz,
- arxiv.uz,
- DSQ ma’lumotlari 2020-2021

SANOAT KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGIMI OSHIRISHDA INNOVATSIYALARDAN FOYDALANISHNING ZARURLIGI.

Homidova Shoxista
Andijon mashinasozlik insituti
iqtisodiyot yo’nalishi talabasi

Respublika aholisining bandligi va daromadlari barqaror o‘sishini ta’minlashga doir vazifalarni hal etishda kasanachilikning turli shakllarini keng rivojlantirish, jumladan, uning yirik sanoat korxonalari bilan kooperatsiyasini kengaytirishga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilar o‘rtasida kooperatsiya aloqalarining mustahkamlanishi oila budjeti daromadlarini oshirishdek muhim muammoni hal etadi, ish bilan band bo‘lmagan aholi sonini keskin